

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

6/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/6 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Umarxanova Dilдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ .....	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ .....	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ .....	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА .....	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA АНАМИЯТИ ВА HUQUQIY MUAMMOLARI .....	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI .....	61-67
<i>Akbaraliev Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES .....	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS .....	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI .....	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI .....	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ .....	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳишта Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	119-129
<i>Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li</i> RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH .....	130-136
<i>Fayzulloev Shohijaxon Jobirovich</i> XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
<i>Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi</i> ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO .....	142-147
<i>Raimov Elbek Bahodirovich</i> OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
<i>Alieva Kamola Ravshanovna</i> OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN .....	153-161
<i>Juraeva Asal</i> MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	162-166
<i>Rakhmonov Otabek</i> THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES .....	167-171
<i>Айбек Якубов</i> ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ .....	172-178
<i>Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li</i> MA'MURIY SUD HUJJATLARINI IJROGA QARATISHNING HUQUQIY TARTIBI .....	179-184
<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
<i>Elmurotov Ortiq Oltiboy o'g'li</i> TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
<i>Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li</i> URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI .....	193-199
<b>08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI</b>	
<i>Imamov Javokhir</i> LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN .....	200-203
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna</i> “TAHDID” FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI .....	204-209
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	

<i>Bawetdinov Mukhammedin</i> UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI .....	210-215
<i>Соҳибова Зарнигор</i> ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) .....	216-219
<i>Jonridova Sanobar Sherali qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI.....	220-224
<i>Sharipova Mokhidil</i> PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH LANGUAGE.....	225-231
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Umarov Abdurasul Abdurahimovich</i> PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH .....	232-237
<i>Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi</i> YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY QARASHLARI .....	238-245
<i>Qalandarova Maxliyo</i> MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH .....	246-251
<i>Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ.....	252-258
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i> TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI.....	259-264
<i>Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA IFODALANISHI .....	265-269



**Received:** 10 August 2024  
**Accepted:** 15 August 2024  
**Published:** 25 August 2024

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE AND LEGAL ISSUES OF GENDER LEGAL EXPERTISE IN ENSURING GENDER EQUALITY IN LABOUR RELATIONSHIPS**

**Ismoilova Aziza Alisher qizi**

PhD Candidate at Tashkent State University of Law  
E-mail: aismoilova\_1989@mail.ru

**Abstract.** This article analyzes the role and problems of gender legal expertise in ensuring gender equality in labor relations. Gender legal expertise examines scientific and practical approaches aimed at increasing gender equality in labor law and practice. The article analyzes legal issues that can be identified through gender expertise, their impact on labor relations, and ways to solve these issues. Also, detailed information is provided about gender legal expertise of foreign countries, the effectiveness of expertise in ensuring gender equality and its practical application.

**Keywords:** gender equality, gender legal expertise, labor relations, gender sensitivity, gender-legal analysis, gender analysis, gender assessment, impact assessment.

## **MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI**

**Ismoilova Aziza Alisher qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mehnat munosabatlarida gender tenglikni ta'minlashda gender huquqiy ekspertizaning roli va muammolarini tahlil qiladi. Gender huquqiy ekspertiza mehnat qonunchiligi va amaliyotida gender tenglikni oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Maqolada gender ekspertizasi orqali identifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolar, ularning mehnat munosabatlaridagi ta'siri va ushbu muammolarni hal qilish yo'llari tahlil etiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar gender huquqiy ekspertizasi haqida, gender tenglikni ta'minlashda ekspertizaning samaradorligi va uning amaliy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** gender tengligi, gender huquqiy ekspertiza, mehnat munosabatlari, gender sezgirligi, gender-huquqiy tahlil, gender tahlili, gender baholash, ta'sirni baholash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N06>

O'zbekistonda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ayollar va erkaklar huquq va imkoniyatlarining tengligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlash hamda ularning jamiyat va davlat hayotidagi ishtirokini oshirish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish maqsadida 3 ta qonun, 6 ta farmon va qaror, shuningdek, hukumat tomonidan 16 ta qaror qabul qilindi.

Barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiq, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" ishlab chiqildi[1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga binoan, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar"[2]. Ushbu tenglik tamoyiliga muvofiq, barcha fuqarolar jinsidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lib, milliy qonunchiligimiz umumiy ma'noda gender tengligi tamoyilini o'zida mujassam etadi.

Shuni tan olish kerakki, tenglik tamoyilining amalda qo'llanilishi insonlarning jinsiga qarab turli natijalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim qonunchilik va idoraviy normativ hujjatlar ushbu tamoyilni to'liq amalga oshirish uchun yetarli mexanizmlarni ta'minlamaydi va bu hujjatlar erkaklar va ayollarning teng huquqliligini faqat nominal darajada aks ettiradi. Shuningdek, ba'zi huquqiy normalarda jinslardan biriga aniq yoki yashirin afzalliklar berilishi mumkin, bu esa gender kamsitishga olib keladi.

Gender tengligi nafaqat huquqlar tengligini, balki erkaklar va ayollar uchun huquqlarni amalga oshirishda teng imkoniyatlarni va natijalar tengligini ta'minlash orqali ularning teng maqomini o'rnatishni ham nazarda tutadi. Gender tengligi tamoyilini huquqiy jihatdan ta'minlashdagi muammolarni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan[3], qonunchilikni gender ekspertizadan o'tkazish orqali hal etish mumkin.

Qonun hujjatlari va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish majburiy hisoblanadi. Bu ekspertiza normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari orasida gender tenglik tamoyillariga mos kelmaydigan jihatlarni bartaraf etishga, shuningdek, ularni qo'llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamsitish xavflarini aniqlashga qaratilgan. Ekspertizaning asosiy maqsadlaridan biri – qabul qilingan qarorlarning asosi va ishonchligini ta'minlash, shuningdek, gender sohasidagi huquqiy tartibga solish bilan bog'liq obyektiv faktlarni aniqlashdir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning gender-huquqiy ekspertizasi, aslida, gender tengligini huquqiy ta'minlashning asosiy elementi bo'lib, u umum e'tirof etilgan va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan xalqaro standartlar va normalarning milliy qonunchilikka qay darajada tatbiq etilishini ham belgilaydi. Normativ-huquqiy hujjatlarning gender-huquqiy ekspertizasi aslida gender tengligini huquqiy ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayon xalqaro miqyosda e'tirof etilgan gender tengligini ta'minlash standartlari va normalarning milliy qonunchilikka qanchalik mos kelishini aniqlashga xizmat qiladi.

Gender-huquqiy ekspertiza qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining gender sezgirligini baholashda muhim vosita bo'lib, bu nafaqat teng huquqlarni, balki ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ham ta'minlaydigan genderga yo'naltirilgan adolatli siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi.

Mamlakatimiz gender tengligi bo'yicha eng yosh qonun hujjatlariga ega davlatlardan biri bo'lgani sababli, xalqaro ekspertlar tavsiya etgan va xorijiy mamlakatlarda sinovdan o'tgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Gender huquqiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-son qarori bilan tasdiqlangan

“Normativ- huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan utkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib [4], ekspertizani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tushuntirishlar, tavsiyalar, shuningdek, amaliy maslahatlarni ham o‘z ichiga oladi. Nizomda qo‘llaniladigan atamalar va ta‘riflar, ishtirokchilarga va ekspertizaga quyiladigan talablar, uni o‘tkazish bosqichlari hamda ekspertiza natijalari bo‘yicha lozim bo‘lgan yakuniy xulosa va tavsiyalar izchil ochib berilgan.

Normativ huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchi yoki normativ huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organning qaroriga binoan iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik, ekologik va boshqa turdagi ekspertizadan o‘tkazilishi mumkin. Masalan, korrupsiyaga qarshi ekspertiza aktga unda korrupsiya omillarining mavjudligi nuqtai nazaridan baho beradi, ya‘ni korrupsiya kelib chiqishi uchun sharoit yaratadigan qoidalar mavjudligini tekshiradi. Qonunchilikdagi ayrim huquqiy normalar ayollar yoki erkaklarning huquq va erkinliklariga nisbatan aniq ustunliklar yoki cheklovlar bo‘lishi mumkin. Gender-huquqiy ekspertizaning asosiy maqsadi bunday holatlarni aniqlash va ularning oldini olishdan iborat.

Shuni ta‘kidlash kerakki, normativ huquqiy hujjatni qabul qilish jarayonida tashabbuskor (qonun chiqaruvchi) har doim ham uning erkaklar va ayollarning huquq va manfaatlarini amalga oshirishga ta‘sirini obyektiv baholay olmaydi. Va bu holda gender-huquqiy ekspertiza turli jinslar manfaatlariga ta‘sir qiluvchi muayyan huquqiy hujjat qabul qilishdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni bartaraf etish vositasiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-bandiga asosan normativ huquqiy hujjatning gender- huquqiy ekspertizasini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Bundan tashqari, gender-huquqiy ekspertiza o‘tkazish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi (hozirgi kunda Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari buyicha respublika komissiyasi) ham alohida o‘rin tutadi [5].

Qayd etish joizki, gender-huquqiy ekspertiza gender tengligi masalalariga oid xalqaro standartlar va normalarning milliy qonunchilikka qay darajada tatbiq etilishini aniqlash maqsadida ham amalga oshiriladi. Qonun hujjatlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning gender- huquqiy ekspertizasini o‘tkazish amaliyotini joriy etish vaqt o‘tishi bilan vakillik va ijro organlarining hamda jamiyatning gender sezgirligini jiddiy darajada oshiradi, shuningdek, ayollar va erkaklar o‘rtasida teng huquqlilik, javobgarlik va teng imkoniyatlarni ham o‘z ichiga olgan adolatli gender siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, gender-huquqiy ekspertiza xalqaro standartlar va normalarning milliy qonunchilikka qanday tatbiq etilishini aniqlash maqsadida ham o‘tkaziladi. Qonun hujjatlari va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning gender-huquqiy ekspertizasini joriy etish vaqt o‘tishi bilan vakillik va ijro organlarining, shuningdek, jamiyatning gender sezgirligini sezilarli darajada oshiradi. Bu, o‘z navbatida, ayollar va erkaklar o‘rtasida teng huquqlilik, javobgarlik va teng imkoniyatlarni o‘z ichiga olgan adolatli gender siyosatini shakllantirishga yordam beradi.

**Xorijiy mamlakatlarda** “gender-huquqiy ekspertiza” tushunchasi o‘rniga “gender-huquqiy tahlil”, “gender tahlili”, “gender baholash”, “ta‘sirni baholash” kabi tushunchalar ham qo‘llaniladi.

Normativ huquqiy hujjat loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi odatda ushbu

hujjatni ishlab chiqayotgan davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlarning parlamentlari va hukumatlari huzurida normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularning loyihalari amalga oshirilayotgan gender siyosatiga mosligini tahlil qiluvchi va qonunlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqadigan maxsus tashkilotlar (komissiyalar, qo'mitalar, guruhlar va boshqalar) mavjuddir.

*Kanadada* gender-huquqiy tekshiruvni vazirlik darajasidagi Kanada ayollar idorasi tomonidan olib boriladi. Ushbu ofis ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir masalalar bo'yicha barcha organlar tomonidan kelishilgan siyosatni amalga oshiradigan maxsus tashkilotdir[6].

*AQShda* gender tengligi tamoyillarini amalga oshirish va gender tahlilini o'tkazish mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklangan. Masalan, Kaliforniya shtatida, San-Fransiskoning shahar va okrug darajasida CEDAW[7] asosida kamsitishni anqlash va halqilish uchun profilaktika vositasi sifatida gender tahlilidan foydalanishni talab qiluvchi yuriqnoma ishlab chiqilgan. Shu munosabat bilan okrugda amalga oshirilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va gender siyosatining gender tahlili bilan shug'ullanuvchi Xotin-qizlar holati bo'yicha mahalliy komissiya tuzilgan[8].

*Fransiyada* parlamentning har ikkala palatasida ham qonun hujjatlari va ularning loyihalari buyicha taklif va tavsiyalarni o'z ichiga olgan ommaviy hisobotlarni tayyorlaydigan ayollar huquqlari, erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar bo'yicha ishchi guruhi mavjud[9].

*Ukrainada* gender-huquqiy ekspertizani Adliya vazirligi amalga oshiradi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiquvchilar ham ushbu ekspertizani o'tkazishlari mumkin[10].

*Belarusiyada* Vazirlar Kengashi huzuridagi gender siyosati milliy kengashi gender siyosati bo'yicha qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid takliflar tayyorlaydi va qonun hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi[11].

*Qozog'istonda* normativ huquqiy hujjat loyihalari ilmiy va oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, ushbu sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan milliy va xalqaro sertifikatlangan ekspertlar tomonidan ko'rib chiqiladi[12].

*Qirg'izistonda* gender-huquqiy ekspertiza Prezident huzuridagi Ayollar, oila va gender taraqqiyoti milliy kengashi kotibiyati qoshidagi normativ huquqiy hujjatning Gender ekspertiza komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi[13].

Shunday qilib, gender-huquqiy ekspertiza qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarda gender tengligining buzilishi faktlarini o'rganish va aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, biz gender-huquqiy ekspertizani bevosita yoki bilvosita gender kamsitishlarini aniqlash va bunday normativ huquqiy hujjatlarning kelajakda qabul qilinishining oldini olish tartibi, deb aytishimiz mumkin.

Gender-huquqiy ekspertizaning vazifalari:

- gender sohasida qabul qilingan qarorlarning asosli va ishonchligini ta'minlovchi obyektiv faktlarni belgilash;
- qonun hujjatlari loyihalari qabul qilinishi natijasida inson huquqlari va gender tengligiga rioya etilishi nuqtai nazaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni tahlil qilish va baholash;
- normativ huquqiy hujjat normalari va ular loyihalarining gender tengligi tamoyillariga

salbiy ta'sirini tugatish (oldini olish);

- gender tengligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

- gender-huquqiy ekspertiza sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarga oydinlik kiritish.

Gender-huquqiy ekspertiza istalgan natijalarni aniq tasavvur etishni talab qiladi. Ushbu yondashuv gender munosabatlari sohasidagi deyarli barcha mutaxassislar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ularning fikricha, bu gender-huquqiy tahlilining qarashlari va maqsadlarini o'z ichiga oladi, gender tengligining umumiy maqsadiga mos keladi va tarixiy kamsitishlarni bartaraf etish, ayollar va erkaklarning to'liq tenglikka erishish imkonini beradigan shart-sharoitlarni ta'minlashdir[14].

O'zbekistonda gender-huquqiy ekspertiza mexanizmi endigina shakl- lanayotganligi sababli BMT va XMT ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro tashkilotlar (xususan, BMTTD, XMT va boshqalar) amaliyotida qo'llaniladigan gender tahlilini o'tkazishning asosiy usullaridan uslubiy asos sifatida foydalanish taklif etiladi, shuningdek, milliy ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan usullar ham qo'llaniladi[15].

Gender huquqiy ekspertiza orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolar mavjud va ularning mehnat munosabatlaridagi ta'siri etishi mumkin. Ushbu jarayon, gender tenglikni ta'minlash yo'lida qanday muammolar paydo bo'lishi mumkinligini aniqlash, ularni oldini olish yoki bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rishni nazarda tutadi.

Gender ekspertizasi mehnat munosabatlarida gender tengligiga taalluqli bir qator huquqiy muammolarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun:

1. **Ish haqi tengligi masalalari:** Ko'plab tashkilotlarda erkak va ayollarning bir xil mehnat uchun turlicha maosh olishi kuzatiladi. Gender ekspertizasi bu muammo qayerdan kelib chiqayotganini aniqlash va uni hal qilish yo'llarini tavsiya qilishda yordam beradi.

2. **Ishga qabul qilish va lavozimga ko'tarilishda teng imkoniyatlar:** Ayollarning yuqori lavozimlarga ko'tarilishi yoki ishga qabul qilinishida kamsitilish holatlari mavjud bo'lishi mumkin. Ekspertiza bu boradagi siyosatlarini ko'rib chiqib, muvozanatni ta'minlash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

3. **Ish joyidagi diskriminatsiya:** Ish joylarida gender asosida diskriminatsiya, jumladan, tazyiq yoki kamsitish kabi holatlar mavjud bo'lishi mumkin. Gender ekspertizasi bu muammolarni aniqlab, ularni oldini olish uchun huquqiy choralar tavsiya qiladi.

Ushbu huquqiy muammolar mehnat munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin:

Birinchiidan, xodimlar motivatsiyasi va ish unumdorligi: ish joyida tenglik va adolatning ta'minlanmasligi xodimlar motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Gender tengligi ta'minlanmagan holatlarda, xodimlar o'zlarini qadrsiz his qilib, ishga bo'lgan qiziqishlari susayishi mumkin.

Ikkinchiidan, kadrlar almashinuvi va korxonalar obro'si: tengliksiz muhit kadrlar almashinuvi ko'payishiga olib kelishi mumkin, bu esa korxonaning obro'siga ham putur yetkazadi.

Uchinchiidan, ish muhitining sog'lomligi: diskriminatsiya yoki adolatsizlik mavjud bo'lgan joylarda ish muhitining sog'lom bo'lishi qiyin. Bu esa nafaqat xodimlarning farovonligi, balki korxonaning umumiy samaradorligiga ham zarar yetkazadi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun va gender tengligini ta'minlash uchun quyidagi yechimlar taklif etilishi mumkin:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: Mehnat qonunchiligini gender tenglik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zarur. Misol uchun, ish haqi tengligini ta'minlash uchun qat'iy huquqiy me'yorlar belgilanishi lozim.

2. Tashkilot kadrlar bo'limlari uchun maxsus treninglar: kadrlar bo'limlariga gender tenglik bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish orqali, ular ishga qabul qilish va lavozimlarga ko'tarilishda kamsitish holatlaridan qochishi mumkin.

3. Shikoyat mexanizmlarini joriy etish: xodimlar diskriminatsiya yoki tengsizlik holatlarida murojaat qilishlari uchun anonim shikoyat mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Bu usul ish joyidagi nohaqliklarni aniqlash va tezkor hal qilishga yordam beradi.

Gender ekspertizasining samaradorligi asosan uning qanchalik to'g'ri va puxta amalga oshirilishiga bog'liq. Gender ekspertizasi natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar korxonalar yoki tashkilotlarda joriy qilinishi kerak. Bu bilan kamsitish va diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmaslik ta'minlanadi. Gender tengligi bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasi muntazam ravishda monitoring qilinishi lozim. Bu ekspertiza samaradorligini oshiradi va yangi muammolar paydo bo'lishining oldini oladi.

Umuman olganda, gender ekspertizasi nafaqat huquqiy muammolarni aniqlashda, balki ularni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon mehnat munosabatlarini sog'lomlashtirish va gender tenglikni ta'minlash yo'lida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu masalalar gender tenglikni ta'minlashda gender huquqiy ekspertizaning ahamiyatini va u bilan bog'liq huquqiy muammolarni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ekspertizaning maqsadi gender tenglik tamoyillarini amalda qo'llashdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Gender huquqiy ekspertiza qonun hujjatlarini gender nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali gender tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va uning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // [Elektron resurs]. -URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> (kirish sanasi: 11.08.2024).
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" // [Elektron resurs]. -URL: <https://lex.uz/docs/-5466673> (kirish sanasi: 11.08.2024).
3. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y. [Elektron resurs]. - URL: <https://lex.uz/docs/-4494849> (kirish sanasi: 11.08.2024).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-son qarori bilan tasdiqlangan "Normativ- huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan utkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom // [Elektron resurs]. -URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4777291> (kirish sanasi: 11.08.2024).
5. O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni bilan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari buyicha respublika komissiyasiga o'zgartirildi. // [Elektron resurs]. -URL:

- <https://lex.uz/docs/-5899498> (kirish sanasi: 17.08.2024).
6. [Elektron resurs]. -URL: <https://www.canada.ca/en/women-gender-equality.html> (kirish sanasi: 17.08.2024).
  7. [Elektron resurs]. -URL: <https://www.sfgov.org/dosw/node/369> (kirish sanasi: 17.08.2024).
  8. [Elektron resurs]. -URL: <https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications/2016/12/cedaw-for-youth> (kirish sanasi: 17.08.2024).
  9. [Elektron resurs]. -URL: <https://eige.europa.eu/gender-mainstreaming/good-practices/parliamentary-delegations-keep-gender-agenda> (kirish sanasi: 17.08.2024).
  10. [Elektron resurs]. -URL: [https://jobs.undp.org/cj\\_view\\_job.cfm?cur\\_job\\_id=115243](https://jobs.undp.org/cj_view_job.cfm?cur_job_id=115243) (kirish sanasi: 17.08.2024).
  11. [Elektron resurs]. -URL: <https://belarus.unfpa.org/en/topics/gender-equality-24> (kirish sanasi: 17.08.2024).
  12. [Elektron resurs]. -URL: [Kazakhstan | UN Women – Europe and Central Asia](https://www.unwomen.org/en/regions/europe-central-asia) (kirish sanasi: 17.08.2024).
  13. [Elektron resurs]. -URL: <https://cbd.minjust.gov.kg/46-140/edition/288523/ru> (kirish sanasi: 17.08.2024).
  14. Making Laws Work for Women and Men: A Practical Guide to Gender-Sensitive Legislation Warsaw, 2017 OSCE/ODIHR Published by the OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights <https://www.osce.org/odihr/327836>
  15. Гендерный анализ. Принципы и элементы// [Elektron resurs]. - URL: [://unrcca.unmissions.org/sites/default/files/unrcca\\_handout\\_gender\\_analysis\\_2020\\_rus\\_0.pdf](https://unrcca.unmissions.org/sites/default/files/unrcca_handout_gender_analysis_2020_rus_0.pdf);
  16. Руководство по проведению гендерного аудита методология гендерного аудита МОТ, основанного на принципе активного участия// [https://ilo.primo.exlibrisgroup.com/discovery/fulldisplay/alma994306333402676/41ILO\\_INST:41ILO\\_V2](https://ilo.primo.exlibrisgroup.com/discovery/fulldisplay/alma994306333402676/41ILO_INST:41ILO_V2);
  17. Гендер и анализ, мониторинг и итоговая оценка реформирования сектора безопасности // <https://www.osce.org/files/f/documents/0/4/75302.pdf>;
  18. Гендерный анализ в системе местного управления и самоуправления// <http://library.res.de/pdf-files/bueros/ukraine/15685.pdf> va boshqalar.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/6 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).